



## KATOLIK VA ISLOM DINLARI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR EVOLYUTSIYASI (FRANSIYA MISOLIDA)

**Annayev Samad Turaqul o'g'li**

— *Jahon iqtisodiyoti va Diplomiya universiteti  
Amaliy siyosatshunoslik fakulteti magistranti*


**Annotatsiya :** o'tmishdagi ziddiyatlarning yangilayotganligidan darak berayotganga Turli konfessiyaga mansub insonlar o'rtasidagi munosabatlar har doim o'zaro ziddiyatli va kuchga tayangan munosabatlar bo'lib kelgan. Asosan katolik madaniyati ustun bo'lgan G'arbiy Yevropada islam dining tobora ko'zga tashlanishi fonida sivilizatsion to'qnashuvlar o'xshaydi.

**Kalit so'zlar :** evolyutiya, sivilizatsiya, katolik, islam, Yevropa, Sharq, G'arb, ziddiyat, to'qnashuv

Bir jamiyatda turli konfessiyalar o'rtasidagi munosabatlarning hozirgi kundagi holati haqida tushuncha hosil qilish uchun ular o'rtasidagi o'zaro aloqalar tarixiga nazar solish lozim. Fransiya jamiyatidagi katolik va islam dinlari o'rtasidagi aloqalar ham xuddi shunday bir necha asrlar davomida shakllangan G'arb va Sharq o'rtasidagi munosabatlar mahsuli deyish mumkin.

Sharqshunos Yuakim Muborakning fikricha Katolik cherkovi islamni boshidan juda katta xavf-xatar sifatida ko'rigan. Bu uning nafaqat shiddat bilan kengayishi, balki mahalliy cherkovlarni zavolga yuz tutishiga sababchi bo'lgani bilan ham bog'liq. Unga ko'ra VII asrdan boshlab "*islom xristianlikni Muqaddas yer (Falastin)dagи ildizlaridan uzib qo'ydi. U Misrni egalladi va Shimoliy Afrikadagi ibtidoiy xristianlikni yo'q qildi. U Vizantiya cherkovini neytrallashtirib, uni faqat slavyan dunyosiga qarab kengayishiga imkon berdi. O'rta Osiyo va Uzoq Sharqqa missionerlarni kirishini to'xtatib, Sharqiy cherkovning missiyasini Rossiyagacha qisqartirdi. Islom Afrika va Osiyodagi juda ko'pchilik odamlarni xristianlikdan uzib qo'ydi. Shu sababli islamni Cherkov tarixidagi eng katta bosh og'riq deb hisoblash mumkin*" (Moubarac, 2017).

Adel-Teodor Kure o'zining "Islom O'rta asrlardagi sharqiy xristianlik talqinida" (*L'Islam dans la pensée chrétienne orientale au moyen âge*) kitobida O'rta asrlardagi sharqiy xristianlarning islamga nisbatan munosabatini ochib beradi. Bahsli kontekstda xristianlar qur'oniy vahiyning "yolg'on"ligini isbotlash uchun Muhammad payg'ambar shaxsini qoralashadi; Xristian dinini sharaflash kontekstida esa Xudoning xristiancha konsepsiyasining to'g'riliqini isbotlamoqchi bo'lishadi. Buning uchun esa Qur'onga asoslangan xristian teologiyasi ishlab chiqilib, xristian e'tiqodi musulmonlarning aql-idrokiga moslashtiriladi. Islomni qabul qilishga chorlovchi muhitda do'zaxdan panoh topish uchun musulmon dinining ahamiyati





nisbiyligini qayd etgan holda, Muhammad payg'ambarning e'tiqodi hamma uchun emas, balki faqat arablarga mo'ljallanganligini takidlashashadi (Khouri, 2016).

XII asrga kelib abbat Pyer de Klune tomonidan o'zining Ispaniyaga sayohati paytida Qur'on lotin tiliga tarjima qilinib, islom haqidagi dastlabki bilimlarga yo'l ochib beriladi. Arab tilini bilmasliklari hisobiga g'arblik ilohiyotchilar islom nima ekanligini ko'p ham tushunishmagan. O'z izlanishlarida musulmon fikrining xristian falsafasiga ta'sirini o'rgangan ilohiyotchilar Qur'oni lotincha tarjimasida o'qishgan. Boshqalar esa tarixni islomni talqin qilish uchun asosiy kalit sifatida olishgan. Xuddi shunday, ular musulmon bu yahudiy va xristiandan keyingi uchinchi donishmand, faylasuf ekanligi va bu to Iso hukmronligi o'rnatiladigan payt kelguncha davom etadigan tabiiy jarayon deya ta'riflashgan (Moubarac, Youakim, 2014).

Yevropa Renessansi o'z nigohini yunon-rim dunyosiga qaratdi. Reformatsiya esa ko'p ilohiyotchilarning kuchini o'z cherkovlari pozitsiyasini oqlashga safarbar qildi. Shunday bo'lsada, islomga bo'lgan qiziqish kamaygani yo'q. Jumladan, bu davrda Teodor Buchman Klunening islomga bag'ishlangan asarlar to'plamini qaytadan chop qildirdi. Mutafakkirlar islomga nisbatan universal qarashlarni ilgari sura boshladi. XIX asrdan boshlab orientalistik ilm-fan arab-musulmon manbalarini ilmiy mezonlarga asosan o'rgana boshladi. Xristianlar ham asosan arab dunyosining musulmon institutlari va diniy matnlar tahliliga urg'u bergen holda xuddi shunday ilmiy mashg'ulotga sho'ng'ib ketdi (Daniel, 2014).

Shu o'rinda Fransiyada Ma'rifikat asri mutafakkirlarining islom haqidagi fikrlari alohida e'tibor talab qiladi. Jumladan, ularning asarlari islom va katolik dinlari vakillari o'rtasidagi jarlikning yanada kengayishiga olib keldi. Shuningdek, ular Yevropa sivilizatsiyasining boshqa dunyo, ayniqsa islom sivilizatsiyasidan ustunligi g'oyasi ustiga qurilgan fikr-mulohazalarni ilgari suradi.

Monteske o'zining 1721-yilda Amsterdamda chop etgan *Fors maktublari* (*Lettres persanes*) asarida islom dunyosini Yevropaning ko'zi bilan aytganda qo'zg'almas, qotib qolgan qoidalar bilan boshqariluvchi qo'zg'almas makon deya ta'riflaydi. Ya'ni u Yevropa yoki Parijda kuzatish mumkin bo'lgan dinamizmga ega emas. Uning nazarida Yevropa jonli, o'zgaruvchan, yangi fikr-g'oyalar uchun ochiq. Shu bilan birga, Monteske uchun sharq odamlaridagi bu qotib qolganlik ulardagi qullik nishonasi (Montesquieu, 2021).

Islom O'rta asr yevropa mutafakkirlari uchun e'tiborni o'ziga tortadigan qiziqish mavzusiga aylangan. Ularning nigohida musulmonlar fanatic, janggari, biroq yakkaxudolikka e'tiqod qiluvchi obrazida namoyon bo'ladi. Volter 1748-yilda o'zining Qur'onga bag'ishlangan maqolasida Muhammad payg'ambar haqida shunday deydi : "Agar u yozgan kitob bizning davrimiz va biz uchun yomon bo'lsa, o'zi yashagan davr kishilari uchun juda ham yaxshi kitob, uning dini ham xuddi shunday. Tan olish kerakki, u deyarli butun Osiyoni butparastlikdan qutqardi." (Voltaire, 2016) Qur'on u uchun "kulgili vahiyalar va noaniq va mantiqsiz bashoratlarga to'la to'plam, biroq Muhammad yashagan mamlakat uchun juda ham





*mukammal qonunlarni o'zida jamlagan. Ular hozirgacha o'zgartirilmasdan, yangi qonunlar orqali kuchini yo'qotmasdan amal qilinib kelmoqda*" (Voltaire, 2016).

Volter Muhammad payg'ambar shaxsida payg'ambarni emas, siyosatchini va islomda esa dinni emas balki siyosatni ko'radi. Shu nuqtai nazardangina Muhammad payg'ambar uning nazdida buyuk shaxs. Qur'on esa unga o'zi olib borayotgan siyosatni qo'llash uchun vosita bo'lib xizmat qilgan.

Monteske esa bosqin va qurol bilan dinni qabul qildirishni tanqid qilib chiqadi. *Fors maktublarida u shunday deydi: "Bosqinchi tomonidan dinning taqdim qilinishi inson uchun baxtsizlik. Qilich haqida so'zlovchi Muhammad dini haligacha insonlarga unga asos bo'lgan buzg'unchi ruhda ta'sir o'tkazadi"* (Montesquieu, 2021). Jumladan *Fors maktublari qahramoni O'zbek shunday savol beradi : "Nima uchun bizni qozikalon cho'chqa va boshqa u xarom deb atayotgan hayvonlar go'shtidan mahrum qilmoqda? Nima uchun halol bo'lishi kerak?"* (Montesquieu, 2021)

Xuddi shunday, yevropalik o'rta asr mutafakkirlari islomni zo'ravonlik ustiga qurilgan, madaniyat jihatdan qoloq kishilarning mantig'iga mos keluvchi din sifatida ko'rishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Umuman olganda, Edvard Said o'zining Orientalizm kitobida : "*O'zi uchun begona va yiroq bo'lgan bir narsa ayrim sabablarga ko'ra u uchun tanish, yaqin va u yaxshi biladigan narsaga aylanadi*"- deya fikrlaganida naqadar haq bo'lganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ya'ni bu yolg'onchi yaqinlik yevropalik mutafakkirlarning islom obrazini o'zlari bilgancha yaratib, uni shu holida taqdim etishlariga olib keldi. Ular uchun islom – xristianlikning yangi, lekin soxta versiyasi. (Said, 2015)

O'rta asrlardagi yevropa mutaffakirlaridan tashqari shoir va yozuvchilarning asarlarida ham islomga nisbatan bepisand munosabatni kuzatish mumkin. Ularda bu ko'pincha bu xristian dinini eng to'g'ri, haq din deya ko'klarga ko'tarish va islom dinining payg'ambarini obro'sizlantirish orqali amalga oshiriladi. Jumladan, italyan shoiri Dante Alegrining "*Ilohiy komediya*" asarining "*Do'zax*" qismida Muhammad payg'ambar to'qqiz doirali do'zaxning sakkizninchи doirasiga joylashtiriladi. U yerda, Dantega ko'ra, zimiston xandaqlar Shayton qal'asini o'rab turadi. Shu tariqa Dante to Muhammad payg'ambarga yetguncha boshqa u qadar ashaddiy bo'limgan gunohkorlar : shahvatparastlar, xasislar, badnafslar, bid'atchilar, badjahllar, xudkushlar, shakkoklar, betavfiqlar joylashgan doiralardan o'tib keladi. Muhammad payg'ambardan keyin do'zaxning eng tubiga qarab yo'lida faqatgina soxtakorlar va sotqinlar (Iuda, Brut va Kassiy)ni topish mumkin. Shunday qilib, Dante Muhammad payg'ambarni eng og'ir gunohkorlar sinfiga kiritib, uni «*nizo va bo'linish urug'ini sepuvchi*» deb ataydi (Alighieri, 2020).

Biroq bu Dantening islom haqida aytmoqchi bo'lganlarining hammasi emas. "*Do'zax*"ning sal oldinroq qismida musulmonlarning kichikroq guruhini uchratish mumkin. Ibn Sino, Ibn Rushd va Salohiddin Ayyubiylar Suqrot, Platon, Aristotellar bilan birgalikda do'zaxning birinchi doirasida bo'lishga hukm qilingan ezgu fazilatli majusiyalar safidan o'rinni oлган. Ularga faqat xristianlikni eng to'g'ri va haq din





sifatida baholay olmagani uchun jazo tayinlangan. Dante bir vaqtning o'zida ularning buyuk ishlaridan zavqlansada, xristian bo'lмаганлари uchun ularни hukm qilishga majbur bo'ladi (Alighieri, 2020).

Shu o'rinda, Danteni yunon faylasuflarining xristianlikdan oldin yashab o'tganligi yoki musulmonlarning Isoni payg'ambar sifatida tan olinishi qiziqtirmaydi. U buyuk musulmon faylasuflarini xristianlikdan batamom xabari yo'q, johillar sifatida hisoblaydi.

Shu tariqa, yevropalik Sharq va ayniqsa islom bilan shu kabi reprezentatsiyalar, ya'ni boshqa birov orqali berilgan tasvirlar orqali tanishadi. Tarixchi Anri Pirenning ta'biri bilan aytganda islom u uchun O'rta asrlar davridan buyon butun yevropa sivilizatsiyasi qarshi qaratilgan begona obraziga aylanadi (Pirenne, 2016). Varvarlarning hujumi natijasida Rim imperiyasining qulashi paradoksal effekt bergen holda varvar viloyatlarining Rim va O'rta yer dengizi madaniyatlariga qo'shilishiga olib kelgan bo'lsa, VII asrdan buyon davom etib kelayotgan islom bosqini yevropa madaniyati markazining O'rta yer dengizi mintaqasidan shimolga siljishiga va bu hududning arablarning hududiga aylanishiga olib keldi. *"Yevropa o'z-o'ziga qamalib qoldi. Sharq u uchun shunchaki tijorat mintaqasi emas, balki taffakkur nuqtai nazaridan, ruhan va ma'nani begona edi"* (Pirenne, 2016).

Biroq faqatgina islomiy va arab Sharqigina Yevropa uchun siyosiy, intellektual va ba'zan iqtisodiy darajalarda jiddiy masala bo'lganligini kuzatish mumkin. Buni o'zaro geografik yaqinlik bilan izohlash mumkin. Shu o'rinda, butun tarix davomida yevropaliklarning islomga nisbatan muammoli munosabatini ko'rish mumkin. Edvard Saidning so'zları bilan aytganda, hech shak-shubhasiz, islom Yevropa uchun haqiqiy provokatsiya edi. U madaniy va jo'g'rofiy jihatdan xristianlikka o'ta yaqin bo'lsa, shu bilan birga, yahudiy va yunon an'alariga ham yaqin edi. Shuningdek, u ungacha tarixda kuzatilmagan harbiy va siyosiy zafarlari bilan g'ururlanishi mumkin. Lekin bular hammasi emas. Islom hududlari Yevropaga juda yaqinlikda joylashgan va Bibliya yerlarini ham qoplab olgan. Islom dunyosining markazi esa Yevropaga eng yaqin bo'lgan Yaqin Sharq mintaqasida joylashgan (Said, 2015).

VII asr oxirlaridan va to 1571-yildagi Lepanto janggiga qadar islom o'zining arab, turk, shimoliy afrika va ispancha shakllarida Xristian Yevropasidan baland keldi yoki unga real tahdid soldi. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, islom o'z muvaffaqiyatlari bilan Rimdan ustun kelib, uni o'z soyasida qoldirdi. Bu haqda Tomas Gibbon o'zining "Rim imperiyasining qulashi va zavoli" (*The History of the Decline and Fall of the Roman Empire*) asarida shunday yozadi: *"Arab xalifalari bir xildagi kuch-quvvat va muvaffaqiyat bilan Avgust va Artakserksning vorislariiga hujum qildi va ikki o'zaro musobaqalashayotgan monarxiya o'zlari allaqachondan buyon yomon ko'rib kelayotgan dushmanning qurbaniga aylandi. Umarning o'n yillik boshqaruvi paytida musulmonlar uning hukmi ostiga o'ttiz olti ming shaharni bo'yysundirdi, to'rt ming cherkov va ibodatxonani vayron qilib, Muhammadning diniga*





e'tiqod uchun to'rt yuzta masjidni barpo qildi. Payg'ambarning Makkadan quvilishidan yuz yil o'tib, uning vorislari Hindistondan Atlantika okeanigacha cho'zilgan hududlardagi turfa-xil va bir-biridan uzoqda joylashgan viloyatlarni fath qilishdi" (Gibbon, 2011).

Lepanto janggi musulmonlarning yengilmasligi to'g'risidagi qarashlarga nafaqat chek qo'ydi, balki G'arbni Sharqdan, xristianlikni islomdan ustunligi to'g'risidagi qarashlarning mustahkamlanishiga ham olib keldi. Bu mantiqqa ko'ra, zeroki G'arb Sharqdan ustun ekan uning ustidan hukmronligini o'rnatishi kerak.

XVIII asr ikkinchi yarmi XIX asr bosqlarida yashagan Konstantin-Fransua Volne o'zining "Misr va Suriyaga sayohat" (*Voyage en Egypte et en Syrie*) asarida Fransiyaning Sharqdagi hukmronligi uchun uchta to'siq bor deb hisoblaydi: Birinchisi bu — inglizlar, ikkinchisi — usmonli turklar, uchinchisi va eng jiddiy to'siq bu — musulmonlar (Volney, 2019). Volnening ushbu kitobi yevropalik Sharq bilan to'g'ridan to'g'ri uchrashganda undan sarosimani sug'urib oladigan zaruriy kitob bo'lib ximat qildi. Volnega ko'ra, Sharq haqidagi kitoblarni o'qish orqali G'arb kishisi adashib qolmaydi, balki Sharq unga bo'ysunadi.

Yuqoridagi maslahatga amal qilib va bir qancha sharqshunoslar jamoasini o'z oldiga olib, o'zining Buyuk armiyasi bilan 1798-yilda Misrga kirib kelgan Napaleon misrliklarga "*biz haqiqiy musulmonmiz*" deya o'zlarining xuddiki islom uchun kurashayotganinin isbotlashga harakat qiladi. Bunda u misrliklarning mamluklarga bo'lган dushmanlik munosabatidan foydalanadi. U tomonidan aytilgan har bir gap shu zahoti qur'oniy arab tiliga tarjima qilindi. Napaleon misrliklarni o'z irodasiga bo'ysundirish uchun armiyasi juda ozlik qilishini tushunib, u Qu'ronni Buyuk armiya foydasiga sharhlab berishlari uchun o'z tomoniga imom, qozi, muftiy va ulamolarni tortdi. Bu maqsadda u Al-Azharda o'qigan oltmishta ulamoni o'z qarorgohiga chaqirib, ularga qanchalar o'zining islomga va uning payg'ambariga bo'lган muhabatti to'g'risida tilyog'lama iqrorini bayon qilib, Qur'ondan oyatlar o'qib berdi (Thiry, 2017). Keyinchalik o'zining o'rribosari Kleberga Misrni faqat sharqshunoslar va u o'z tomonlariga og'dirishga muvaffaq bo'lingan musulmon diniy ulamolar orqali boshqarish to'g'risida ko'rsatma beradi (Thiry, 2017). Chunki boshqacha boshqaruv ular uchun juda qimmatga tushishi aniq edi.

Napaleon armiyasining Misrdagi muvaffiqatsizligidan keyin, Fransiya o'zining keying kolonial siyosatida diniy mavzudan o'zini uzoqda tutishga harakat qiladi. Jumladan, 1830-yilda Aljirni egallagan Marshal de Burmont barcha uchun diniy erkinlik e'lon qiladi. Bundan keyingi armiya oldingi imperizalimning faqat harbiy va siyosiy tomonlarini o'ziga olib, katolik dinini yoyishni o'z vazifasi sifatida belgilamaydi (Vermeren, 2018). Biroq bu katolik missionerlarining istilo qilingan hududlarga joylashishiga xalaqit bermaydi. Xususan, Aljir egallanganidan quvongan Marsel arxiyipeskopi tez orada missionerlarning Afrikani katolik diniga o'tkazish bo'yicha ishga kirishishlari to'g'risida bayonot beradi (Frémeaux, 2016). Shunga qaramay, 1832-yilda Abdul Qodir boshchiligidida e'lon qilingan jihod fransuz kolonial





ma'muriyatini o'zini diniy urushga tortmasdan, missionerlarni Jazoyirdan chiqarib yuborishga undaydi (Frémeaux, 2016).

Jazoyirdan so'ng butun XIX asr va to XX asr boshlarigacha Fransiya ko'pgina musulmon mamlakatlarni o'z hukmronligi ostida birlashtiradi. Bular jumlasiga Marokash, Tunis, G'arbiy va Markaziy Sahara, Gvineya, Senegal, Komor, shuningdek, Suriya va Livan kiradi. Bu bilan Fransiya o'zi xohlab-xohlamay musulmon imperiyasiga aylanib, ikki jahon urushi oralig'ida 25 million musulmon aholisini idora qilishiga to'g'ri keladi. Birinchi jahon urushida 70 ming musulmonning vatan uchun jon berishi esa 1927-yilda ular sharafiga Fransiyadagi birinchi masjidning ochilishiga sabab bo'ladi (Michel, 2016).

Umuman olganda, XX asr boshlaridan boshlab diniy nuqtai nazarning tubdan o'zgarganligi ko'zga tashlanadi. Ushbu davrda G'arbiy Yevropaning turli hududlarini kuzata turib atiga bir avlod umri davomida fikrlarning o'zgarishiga guvoh bo'lish mumkin. Biroq bu o'zgarish ilohiyotchilarning emas, balki bir qancha sharqshunos olimlarning ulkan mehnati evaziga yuz berdi (Caspar, 2016).

Ispaniyada arabist ruhoniy Madrid universitetida arab tilidan dars bergan Migel Asin Palasyos (1871-1944) musulmon izlanishlariga katta turtki beradi. Palasyos o'z tezisini islom to'g'risidagi uch xil nuqtai nazar asosida bayon qiladi. Unga ko'ra : *"Ibtidoiy islom xristianlikning chuqur ta'siriga uchragan, ayniqsa sharqiy monaxizmning ; Islom xristianlikdagi aqida, axloq, tarkidunyochilik va tasavvuf sohalaridagi bilimlarni tizimlashtirib, sayqal bergen; Sharqiy xristianlikning g'arbiy xristianlikka ta'siri islom orqali va o'rta asrlar sxolastikasiga arab dunyosining ta'siri ostida yuz beradi"* (Caspar, 2016). Palasyosning shogirdlaridan hammasi ham bu tezisni qo'llab-quvvatlamaydi. Uning bu yerda qilgan xizmati islom haqidagi qarashni o'zgartirganida. Ya'ni Ispaniya xristianlar tomonidan qayta egallangandan buyon avloddan avlodga dushman obrazida yetkazib kelingan islom dini bu safar zamonaviy Ispaniyaning yaralishida ijobjiy rolga ega bo'ldi.

Fransiyada esa Fransiya Kollejida musulmon sotsiologiyasidan dars bergan Lui Massinyon (1183-1962) shaxsi islom to'g'risidagi qarashlarning o'zgarishiga sabab bo'ldi. Ma'lumoti bo'yicha sharqshunos bo'lgan Massinyon 922-yilda Bag'dodda qatl qilingan mutasavvuf Mansur Halloj shaxsi ustiga o'z tezisini yaratadi. U mazkur mutasavvuf orqali o'z hamrohlari tomonidan tashlab ketilgan Iso obrazini ko'rди. Bundan u islom ichida shu dunyoning o'zida Xudo bilan birlik hosil qiluvchi ruhoniylar bor degan xulosaga keldi. Xristianlarning endi islomga qarshi kurashishlariga hojat yo'q. Shu tariqa Massinyon butun hayotini musulmon dunyosiga bo'lgan yangicha dunyoqarash uchun sarf qildi (Harpigny, 2021).

Bu davrda katolik cherkovining ham o'z missiyasini qayta ko'rib chiqqaniga guvoh bo'lish mumkin. Shu tariqa Vatikan boshqa din vakillari va diniy erkinliklar to'g'risida bayonot bera boshladi. Islom va boshqa dinlar bilan aloqa o'rnatish uchun Papa Pol VI 1964-yil 19-may kuni xristian bo'limganlar uchun Kotibiyat tashkil qilib, o'sha yilning 6-avgustida yepiskoplarga qilgan o'z murojaatida Katolik





cherkovining xristian bo'lмаганлар билан муносабатига мутлақо юнги дуньоқараш, я'ни динлараро муроқотни тарғиб қилди (Caspar, 2016). Шундан буён ислом-християн учишувлари ананавиј тус олгани етіборга молик. Бироқ бу муроқотлар ислом діни дүнінде, хусусан Европа ва Фран西яда үнинг копинча тероризм ва зоравонлік белгіләніп салбыи иміжга ега болытган бир шароитда осон кеңмайтганligini тақидлаш лозим.

Xulosa орніда айтish mumkinki, ислом ва католик діnlari ортасидаги муносабатлар узоқ отмішдан бoshlab озаро куч муносабаттарында асosланғаныға гувоh bo'lish mumkin. Bu ziddiyatlarda to Usmonli turklarning Yevropadagi mag'lubiyatigacha (Lepante jangi) ислом dominantlik qilgan. Keyinchalik Yevropa davlatlari taraqqiyotda oldinga o'tib, Sharqda kolonializm siyosatining olib borishi bu kуч муносатларынан то'лиq G'arb foydasiga hal bo'lishiga оlib keldi. Yevropalik sharqshunoslar томондан Sharq, jumladan исломни куч муносабаттарынан келіb чиқиb tasvirlashi Yevropada imperialistik qarshlarning yanada ildiz otishiga hissa qo'shdi. Ayni Fransiya misolida dekolonizatsiyadan со'ng ham musulmonlarga nisbatan salбыи qarashlarning qolaytganligi hali ham yuqorida тақидланған imperialistik qarashlardan to'laligicha voz kechilmaganligini ko'rsatmoqda.

Katolik cherkovi esa boshqa din vakillari, jumladan musulmonlarga nisbatan муносабатларын тартыбга молик. Dinlar ортасидаги муроқот ўйларынан танланғанлығы har ikkala konfessiya vakillari үчун foydадан holi bo'lmaydi. Biroq oxirgi turli radikal oqimlar orqали ислом дінине иміжге salbiy qarashlarning шакланышы fonida муроқотларни saqlab qolish har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega.

## ADABIYOTLAR:

**Alice Galopin;** L'article à lire pour comprendre pourquoi le "grand remplacement" est une idée raciste et complotiste [В Интернете] // France Télévisions. - 2022 г.. - [https://www.francetvinfo.fr/elections/presidentielle/l-article-a-lire-pour-comprendre-pourquoi-le-grand-replacement-est-une-idee-raciste-et-complotiste\\_4965228.html](https://www.francetvinfo.fr/elections/presidentielle/l-article-a-lire-pour-comprendre-pourquoi-le-grand-replacement-est-une-idee-raciste-et-complotiste_4965228.html).

**Alighieri Dante** la divine comédie [Книга]. - Paris : Flammarion, 2020.

**Bourdieu Pierre** L'identité et la représentation: Éléments pour une réflexion critique sur l'idée de région [В Интернете] // Persee. - 2018 г.. - [https://www.persee.fr/doc/arss\\_0335-5322\\_1980\\_num\\_35\\_1\\_2100](https://www.persee.fr/doc/arss_0335-5322_1980_num_35_1_2100).

**Bras Hervé Le** Il n'ya pas de grand remplacement [Книга]. - Paris : Grasset, 2022.

**Caspar Robert** Pour une vision chrétienne du Coran [Книга]. - Paris : Editions Saint-Honoré, 2016.

**Constitutionnel Conseil** Texte intégral de la Constitution du 4 octobre 1958 en vigueur [В Интернете] // Conseil Constitutionnel. - 2018 г.. -

